

**“XAMSA” ILK DOSTONLARI VAZNI XUSUSIDA***Sharipova Nigora Nuriddinovna,**Navoiy davlat universiteti doktoranti (DSc), f.f.f.d., (PhD)***РАННИЕ ЭПОСЫ "ХАМСЕ" ПО ВЕСУ***Шарипова Нигора Нуриддиновна, докторант Навоий государственного университета***THE FIRST EPICS “KHAMSA” ARE ABOUT WEIGHT***Sharipova Nigora Nuriddinovna, doctoral student of Navoi state University*[nigora-sharipova@internet.ru](mailto:nigora-sharipova@internet.ru)[https://orcid.org/0009-0005-](https://orcid.org/0009-0005-4255-8672)[4255-8672](https://orcid.org/0009-0005-4255-8672)

**Annotatsiya:** Maqolada “Xamsa” ilk dostonlari “Maxzan ul-asror”, “Matla’ ul-anvor”, “Tuhfat ul-ahror” hamda “Hayrat ul-abror”ning vazni masalasi tahlilga tortilgan. Mazkur dostonlar yozishda qo‘llanilgan sari’ bahrining imkoniyatlari, ikki tur vazni, bu bahrning mazkur dostonlarda talqin etilgan masalalar mohiyatini to‘laqonli aks ettirishdagi o‘rni tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** vazn, sari’, qofiya, talqin, an’ana, badiiy mahorat.

**Аннотация:** В статье рассматривается вопрос метрической структуры первых поэм «Хамсы»: «Махзан ул-асрор», «Матлаъ ул-анвор», «Тухфат ул-ахрор» и «Хайрат ул-аброр». Особое внимание уделено возможностям использования размерного метра сари, его двум основным вариантам и роли данного метра в полном раскрытии идейно-художественного содержания этих поэм.

**Ключевые слова:** размер, сари, рифма, интерпретация, традиция, художественное мастерство.

**Abstract:** the article examines the issue of the metric structure of the first poems of “Khamsa”: “Makhzan ul-asror”, “Matla’ ul-anvor”, “Tuhfat ul-ahror” and “Khairat ul-abror”. Particular attention is paid to the possibilities of using the sari meter, its two main variants and the role of this meter in the full disclosure of the ideological and artistic content of these poems.

**Key words:** size, sari, rhyme, interpretation, tradition, artistic craftsmanship.

**Kirish.** Adabiyotshunoslikda amalga oshirilgan qator tadqiqotlarda “Xamsa” ilk dostonlarini yozishda qo‘llanilgan sari’ bahri va uning vaznlari xususida muhim qaydlar uchraydi. Mualliflarga ilk dostonlarda talqin etilgan falsafiy mushohadalar, pand-nasihah tarzidagi fikrlar, murakkab o‘y va qarashlarni ifodalashda bu bahr juda qo‘l kelgan. Soddalik, tushunarlilik, ravonlik muallif dunyoqarashini teran ifoda etishdan tashqari, kitobxonga badiiy-estetik jihatdan ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Sari’ bahrining yana bir afzal tarafi – benihoya teran ma’noli so‘z va iboralardan qofiya yasashga imkon berishidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Navoiy «Mezonul-avzon»da rajaz, ramal, munsarih, muzori’, mujtass va sari’ bahrlariga misollar keltirib, sari’ bahrining 2 turini e’tirof etadi: 1) Sariyi musaddasi matviyi mavquf; ( V V - | - V V - | - V ~ );

2) Sariyi musaddasi matviyi makshuf. ( V V - | - V V - | - V - )

Sari’ turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan hosil qilingan bahrlar sirasiga kiradi. Shayx Ahmad Taroziy «Funun ul-balog‘a»da o‘ttiz ikki bahrni sanab o‘tadi va sari’ bahriga ham to‘xtalib, uning *mus-taf’-i-lun/ mus-taf’-i-lun/ maf’-*

u-lo-tu // - - v - / - - v - / - - -  
v ko‘rinishidagi vaznini qayd etib o‘tadi [3].

Ahmad Taroziy keltirgan mazkur vazn sari‘ bahrining solim shakli bo‘lib, adabiyotshunos D.Yusupova sari‘ning solim shakli turkiy adabiyotda uchramasligini, she‘riyatimizdan uning faqat sariyi musaddasi matviyi makshuf va sariyi musaddasi matviyi mavquf shakllaridan foydalanilganini ta‘kidlaydi [10]. Abu Abdulloh Xorazmiy «Mafotih ul-ulum» asarida bahr tushunchasiga ta‘rif berib, bahrning to‘qqizinchi turi sifatida sari‘ni keltiradi va bu bahrning yetti xil variantini sanab o‘tadi [2]. I.Steblevaning yozishicha, klassik poeziyada «vazn konkret she‘rning asosiy g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lgan va shuning uchun shoirlar tomonidan maxsus tanlab olingan» [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Asarning kitobxon mehrini qozonishida, unda olg‘a surilgan g‘oyalarni mahorat bilan ifodalash, asarga mos keluvchi vazn tanlash, asarning boshidan oxirigacha bir maromdagi musiqiy silsilani yaratish muhim sanaladi. Sari‘ bahri ruknlari ravon va ohangdor, behad boy ma‘nolarni ifodalashga imkon bergani uchun “Xamsa” ilk dostonlarining barchasi shu bahrning har ikki vaznida yozdi. Xamsanavislar doston uchun bu bahrni bejizga tanlamagan. Birinchidan, bu – an‘ana talabi edi. Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror»dan boshlangan bu an‘ana Xusrav Dehlaviyning «Matla’ ul-anvor», Abdurahmon Jomiyning «Tuhfat ul-ahror» hamda Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarlarida davom etdi. Xususan, Hazrat Navoiy ham an‘anaga rioya etmoqni joiz deb bilgan. Ikkinchidan, doston uchun tanlagan bu an‘anaviy bahr asarning g‘oyaviy ruhiga mos tushgan, ravon, yengil uslubi asar mohiyatini kitobxonga yetkazib berish uchun qulaydir. Ta‘kidlash joizki, Hakim Sanoiy «Xadoyiq ul-haqoyiq» dostonini xafif bahrida yozgan bo‘lib, uning ijodiy ta‘sirida bo‘lgan Nizomiy esa «Maxzan ul-asror» dostonini sari‘ bahrida yozgan va bu bahr Alisher Navoiyga ham ma‘qul kelgan.

**Tahlil va natijalar.** Ta‘kidlash joizki, “Maxzan ul-asror”, “Matla’ ul-anvor”, “Tuhfat ul-ahror”, «Hayrat ul-abror»da ham sariyi musaddasi matviyi mavqufda yozilgan baytlar sariyi musaddasi matviyi makshufda yozilgan baytlardan kamroq uchraydi. Odatda misra so‘ngida cho‘ziq unli, qator undosh bilan tugagan so‘zlar yoki yopiq bo‘g‘in tarkibida cho‘ziq o, o‘ unli kelsa, sari‘ning shu bahri hosil qilingan:

Shak-ka-ri-din to‘-ti e-di sharm-sor

– V V – | – V V – | – V ~

To‘-ti-dek e-di za-na-xi taqv-dor

– V V – | – V V – | – V ~ [M.A. –B.52]

“Maxzan ul-asror”dan olingan mazkur baytda sariyi musaddasi matviyi mavquf vaznidan foydalanilgan bo‘lib, misralar so‘ngida kelgan *sharmsor* va *taqv-dor* so‘zlaridagi qator undoshli – *sharm* va *taqv* hijolari –V (bir cho‘ziq va bir qisqa hijo) tarzida ifodalanadi. Shundan so‘ng yopiq bo‘g‘in tarkibida kelgan *o* tovushi yana bir o‘ta cho‘ziq hijoni yuzaga keltiradi. O‘ta cho‘ziq hijolarning baytda ketma-ket keltirilishi ularda ilgari surilayotgan masalalarni ta‘sirchan yetkazib berishda muhim vosita sanaladi. Bayt musiqiyli, ravon va ta‘sirchanligi shu orqali yanada kuchaytiriladi. Dostonning Ikkinchi maqolatidan olingan quyidagi baytga diqqat qilaylik:

Bo-shi-ga mush-tur-di-yu yosh to‘k-di ul

– V V – | – V V – | – V –

Zul-mu si-ta-mo-xi-ri ko‘z yo-shi-dir

– V V – | – V V – | – V –

Bayt misralarining ikki o‘rnida *vasl* hodisasi kuzatiladi. Birinchi misrada *musht* so‘zining so‘nggi *t* tovushi keyingi *urdi-yu* so‘zining birinchi bo‘g‘iniga qo‘shilib, *tur* hijosini hosil qiladi. Bu orqali ikkita masala nazarda tutiladi. Birinchisi, *musht* so‘zi qator undoshli bo‘lgani sababli uni o‘ta cho‘ziq hijo sifatida olish ruknlarda taqte‘lar tartibi hamda bahr talablari buzilishiga olib keladi. SHU nuqtai nazarda *vasl*ning o‘rni muhim sanaladi. Ikkinchidan, arab grammatikasi va aruz vazni talablariga binoan birinchi harfi unli tovush bilan boshlangan so‘zning oldingi so‘nggi tovushi undosh bo‘lgan so‘zga qo‘shilib hijo hosil qilinishi misralar ohangida musiqiylikning uzilmasdan bir butunlik hosil qilishida, shu orqali ta‘sirchanlikning yuqoriligiga xizmat qiladi. “Hayrat ul-abror”dan olingan quyidagi baytga e‘tibor qarataylik:

Qil-di chu Ad-ham xa-la-fi tar-ki joh

– V V – | – V V – | – V ~

To-ji fa-no bo-shi-g‘a qo‘y-di I-loh

– V V – | – V V – | – V ~

Muf-ta-i-lun|muf-ta-i-lun|fo-i-lon [H.A. –B.102]

Mazkur baytda birinchi va ikkinchi misralardagi birinchi, ikkinchi ruknlar *muftailun*, birinchi va ikkinchi misraning so‘nggi ruknlari

foilondan hosil qilingan. Qisqa unlilar bilan tugagan ochiq bo‘g‘inlar qisqa hijo, cho‘ziq unli – o bilan tugagan hamda yopiq bo‘g‘inlar cho‘ziq hijo hosil qilgan. Quyidagi baytning qator jihatlariga e‘tibor qaratish lozim:

De-ma yi-lon| aj-da-re-rur|ganjsanj  
 - V V - | - V V - | - V ~

Muz-ma-ra-ning |jav-fi-da yuz|tur-fa ganj  
 - V V - | - V V - | - V ~ [H.A. –B.195]

Bunda birinchi misrada vasl hodisasi kuzatiladi. «Vasl – (arabcha-«ulanish») aruz tizimi asosida yaratilgan she‘riy asarlarni ifodali o‘qish jarayonida vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undoshni undan keyin turgan hamda unli bilan boshlangan hijoga qo‘shib talaffuz etish»[6]. Bu hodisa birinchi misrada *ajdar* va *erur*, ikkinchi misrada *muzmar* va *aning* so‘zlarida kuzatiladi. Aruzda musiqiylik, ritmik ketma-ketlik mavjud bo‘lib, bir so‘z ikkinchi bir so‘zga ulangan holda talaffuz qilinadi. Bunda *aj-dar* va *muz-mar* so‘zlarining ikkinchi bo‘g‘ini odatda cho‘ziq hijo sifatida olinishi kerak. Lekin bu so‘zlardan keyin kelgan *erur* va *aning* so‘zlari *ajdar* va *muzmar* so‘zlarining so‘nggi tovushi bilan vaslni yuzaga keltiradi. *Aj-da-re-rur*, *muz-ma-ra-ning* singari. Bu vazn talabi nuqtai nazaridan ham, talaffuz me‘yorlariga ham to‘la mos keladi. Biroq bu jihatga e‘tibor qaratilmasa, ya‘ni vasl hodisasi hosil qilinmasa, bahrda rukn taqte‘larida mos kelmaslik kuzatiladi. *Aj-da-re-rur* birinchi misradagi ikkinchi ruknni, *muz-ma-ra-ning* ikkinchi misrada birinchi ruknni hosil qilgan va har ikkalasi *muftailun* afoylilini shakllantirgan:

Aj-da-re-rur                      Muz-ma-ra-ning

- V V -                              - V V -

Muf-ta-i-lun                      Muf-ta-i-lun

Biroq vasl hodisasi e‘tibordan chetda qolsa, quyidagi holat kuzatiladi:

Aj-dar e-rur                      Muz-mar a-ning

- - V -                              - - V -

Ko‘rinib turibdi-ki, bu afoylil sari’ ruknlari orasida uchramaydi.

Keyingi jihat, birinchi misraning so‘nggi ruknida kelgan *ganjsanj* so‘zi bilan bog‘liq. So‘zning *ganj* qismida qator undosh mavjud va odatda qator undoshli so‘zlar o‘ta cho‘ziq hijo sifatida olinadi va misraning eng oxirida emas, bosh va o‘rta qismida kelsa, bir cho‘ziq va bir qisqa hijo bilan belgilanadi. Ba‘zan bunday so‘zlarning oxiriga

qisqa *i* tovushini qo‘shgan holda bir cho‘ziq va bir qisqa bilan ifodalab, ikkita belgi bilan olishimiz mumkin – V. *Ganj* so‘zi shuning uchun bir cho‘ziq «- « va bir qisqa «V» hijo bilan berilgan. Agar shunday so‘z misraning eng so‘nggi qismida qofiya yoki radifning so‘nggi hijosi sifatida kelsa, uni o‘ta cho‘ziq «~» belgisi bilan beramiz. *Sanj* so‘zida shu hodisa kuzatilgan.

**Xulosa.** Umuman olganda,

adabiyotshunoslar, “Xamsa” ilk dostonlarida mualliflar hayot va insonning undagi o‘rni, hukmdor va xalq munosabatlari, yuksak insoniy fazilatlarining inson ma‘naviy kamolotidagi ahamiyati, tarbiya va uning barkamol insonni kamol toptirishdagi roli singari umumbashariy g‘oyalar, hayotiy hikoyalarni badiiy ifodalashda bu vaznlarning ohang imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanganini e‘tirof etishadi. Darhaqiqat, vazminlik, sokinlik, bir maromdagi ohang va musiqiylik sari‘da yozilgan baytlarning mohiyatini teran mushohada etish, chuqur anglash va tahlil etishga imkon tug‘diradi, didaktik ruhni kuchaytiradi, ta‘sir imkoniyatlarini kengaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Oltinchi jild. Hayrat ul-abror.– T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Abdulloh Xorazmiy “Mafotih ul-ulum” // Sharq mumtoz poetikasi. H.Boltaboyev talqinida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008. – B.176.
3. Ahmad Taroziy “Funun ul-balag‘a” // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2003 yil, 1-son. – B.70
4. Стеблева И.В. РИТМ И СМЫСЛ В КЛАССИЧЕСКОЙ ТЮРКОЯЗЫЧНОЙ ПОЭЗИИ. – М.: Наука, 1993. – S.131.
5. Fitrat. Aruz haqida. Nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi H.Boltaboyev. – T.: O‘qituvchi, 1997;
6. Hojiahmedov A. Navoiy aruzi nafosati. – T.: Fan, 2006.
7. Mirzayev S. Navoiy aruzi. Fil.fan.nom.diss. – T., 1946;
8. Nizomiy Ganjaviy. Maxzan ul-asror (Sirlar xazinasi). Forsiydan O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimasini. – Toshkent, 2016. – 164 b.
9. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Akademnashr, 2020. – B.141-142.
11. Yusupova D. A.Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi. Fil.fan.nom.diss. – T. 2008. – B 22-34.